

**DUNYO XALQLARI MADANIYATIDAGI UMUMIYLIK VA
FARQLAR*****Ochilova Farangiz Behzod qizi******Saidova Lola Komiljon qizi****SHDPI xorijiy til adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabalari*

Annotatsiya: *Dunyo xalqlari madaniyati o'ziga xos xilma-xillikka ega bo'lsa-da, unda umumiylik va farqlar mavjud. Ushbu tadqiqotda turli millatlarning urf-odatları, an'anaları, diniy marosimlari va turmush tarzi o'rganilib, ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Barcha xalqlarga xos mehmondo'stlik, oilaviy qadriyatlar, san'at va musiqa kabi umumiy jihatlar mavjud bo'lsa, til, milliy libos, oshxona madaniyati va diniy e'tiqodlar kabi farqlar har bir xalqning o'ziga xosligini belgilaydi.*

Kalit so'zlar: *Madaniyat, umumiylik, farqlar, urf-odatlar, an'analar, bayramlar, san'at, diniy e'tiqodlar, mehmondo'stlik, turmush tarzi, milliy kiyimlar, mintaqaviy taomlar.*

Annotation: *The culture of the world's peoples is uniquely diverse, yet it contains both commonalities and differences. This study examines the customs, traditions, religious ceremonies, and lifestyles of various nations, analyzing their interconnections. Common aspects such as hospitality, family values, art, and music are shared by all cultures, while differences in language, traditional clothing, cuisine, and religious beliefs define the uniqueness of each nation.*

Key words: *Culture, commonality, differences, customs, traditions, holidays, art, religious beliefs, hospitality, lifestyle, national clothes, regional dishes.*

Аннотация: *Культура народов мира обладает уникальным разнообразием, однако в ней присутствуют как общие черты, так и различия. В данном исследовании рассматриваются обычаи, традиции, религиозные обряды и образ жизни различных народов, анализируются их взаимосвязи. Общие черты, такие как гостеприимство, семейные ценности, искусство и музыка, присущи всем культурам, тогда как различия в языке, национальной*



одежде, кулинарных традициях и религиозных верованиях определяют уникальность каждого народа.

Ключевые слова: *Культура, общность, различия, обычаи, традиции, праздники, искусство, религиозные убеждения, гостеприимство, образ жизни, национальная одежда, региональные блюда.*

Dunyo xalqlari madaniyati turli xil bo'lishiga qaramay, ularning o'zaro o'xshashliklari va farqlari mavjud. Madaniyat insoniyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, u xalqning tarixi, urf-odatlarini, an'analari va turmush tarzini aks ettiradi.

Madaniyat tasodifan paydo bo'lgan emas, balki u turli bilimlar majmuidan, ishonch-e'tiqodlardan, san'atning barcha ko'rinishlaridan, jamiyatdagi axloqiy tamoyillar, qonun qoidalaridan, urf - odatlardan tashkil topadi. Shuningdek, inson jamiyat a'zosi sifatida o'zlashtirib olgan adolat, burch, mas'uliyat, tenglik, ozodlik, Vatan tuyg'ulari ham madaniyatning paydo bo'lib shakllanishiga ta'sir qilgan. Bir so'z bilan aytganda, madaniyat - insoniyatning butun faoliyatidagi to'g'ri yo'l va natijadir.

Madaniyat va sivilizatsiya - o'tmish mahsuli, ayni paytda kelajak uchun, jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Madaniyat insoniyatning moddiy, aqliy, siyosiy, badiiy faoliyati sifatidayuzaga keldi. Inson yovvoyi hayotdan sivilizatsiyalashgan hayotga o'tganda, madaniyat taraqqiy etib bordi. Ibtidoiy madaniyat davrini ba'zi olimlar jamiyat davri deb ham ataydilar. Insoniyat madaniyatni shakllantirib, rivojlantira borar ekan, yakkashaxsning va butun jamiyatning axloqiy tamoyillarini, baxt - saodatga erishish yo'l - yo'riqlarini topishga intiladi. Madaniyat turli mamlakatlarda turlicha shaklda namoyon bo'ladi. Keyingi yillarda madaniyat tushunchasi bilan birga, «Sivilizatsiya» atamasi ham tez-tez eshitiladigan bo'lib qoldi. Muayyan xalq, xudud yoki davlatning taraqqiyot bosqichlari, ularga xos madaniy rivojlanish to'g'risida gap ketganida, olim va mutaxassislar ana shu atamadan foydalanmokda. Bu esa o'z-o'zidan «Xush, madaniyat nima? Sivilizatsiya-chi?» kabi savollarga javob berishni taqozo etadi. Madaniyat ko'pqirrali ijtimoiy-tarixiy hodisa bo'lib, insoniyat manaviyati yo'qsalib borgan sayin mazkur tushunchaning mazmuni tobora boyib boradi. Madaniyat inson



tomonidan yaratilgan suniy olamdir yoki ikkinchi tabiatdir, degan qarashlar ham yo`q emas. Bunda odam zotining yaratuvchilik qobiliyati, iktidori va shu asosdagi faoliyati hamda ularning natijalari nazarda tutiladi.

Madaniyat inson bilimlari, kunikma va tajribalarini, manaviy saloxiyatini hamda amaliy faoliyat jarayonida inson ideallarining ro`yobga chiqishi va shaxs sifatida kamol topish jarayonini o`zida aks ettiradi.

Madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari o`zaro bog`liq bo`lsa-da, turlicha mazmun va xususiyatga egadir. Bazi olimlar madaniyat, o`zining kelib chiqishiga ko`ra, sivilizatsiyaga nisbatan qadimiydir, u mohiyatan sivilizatsiyaning ruxi, jonidir, deb xisoblaydi. Masalan, A. Toynbi «Tarixning idrok qilinishi» asarida shunday fikrlarni bayon etadi. Franso`z olimi R. Aron ham shunga yaqin xulosaga keladi. Milliy madaniyatning kamol topishi, rivoji va saqlanishi uchun eng asosiy tabiiy omil bu Vatandir. Uning sajdagox kabi muqaddasligining sabablaridan biri ham ana shunda. Vatansiz milliy madaniyatning takomili, uning avlodlardan-avlodlarga tula holda meros qolishi to`g`risida gapirish kiyin. Faqat o`z vatanidagina millat madaniyatini cheksiz rivojlantirish, manaviy kamolotning yo`qsak chukqilariga tomon yetish imkoniga tula-tukis ega bo`lishi mumkin.

O`z urf-odat va ananalarga ega bo`lmagan millat yo`q. Manaviy hayotning mana shu jixatlari orqali millatning o`zligi namoyon bo`ladi. Urf-odat va ananalarda millatning tarixi, utmishi, madaniy merosi o`z aksini topadi. Ana shu xususiyatlarini yo`qotgan millat etnoijtimoiy birlik sifatida yuqoladi. Shu bilan birga, muayyan xudud, davlat va mintakalarda ham bir kancha xalqlarning azal-azaldan yonma-yon yashab kelayotganligining guvohimiz. Albatta, ular orasida tabiiy ravishda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar jarayoni boradi. Bu jarayonlar, o`z navbatida, umuminsoniy va baynalmilal madaniy tamoyillar asosida amalga oshadi. Madaniyatlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ular o`rtasidagi umumiy jixatlarning kamol topishiga olib keladi. Ana shu umumiylik bilan aloxidalik, yani butunjahon madaniyati va biror-bir xalqqa xos bo`lgan madaniyat o`rtasidagi muntazam aloqa ham insoniyat tarixi va taraqqiyoti uchun muxim xisoblanadi. Bu soxada umumbashariyatga xos bo`lgan jixatlarni biz madaniyatdagi umuminsoniylik, millatning o`zigagina xos bo`lgan xususiyatlarni esa



madaniyatning milliyliги deb ataymiz. Aslida esa milliylik va umuminsoniylik bir butun madaniyatning ikki tomoni, bir-birini taqozo etuvchi jixatlardir. Madaniyat ana shu ikki jixatning uzviy aloqasi va bir butunligi orqali namoyon bo`ladi. Milliylik madaniyatning joni, uning millat bilan bog`liq yashash usuli, millatning unda namoyon bo`ladigan ruxidir. Umuminsoniylik esa madaniyatning butun jahonga xosligi, ana shundan kelib chiqadigan umumbashariy xususiyatlari, jamiyat rivojining barcha davr va xududlarga xos umumiy tamoyillaridir.

Madaniyatshunoslik falsafaning mustaqillik yillarida mamlakatimizda keng taraqqiy etayotgan falsafiy fan soxalaridan biridir. Sobik Ittifok davrida bu fan umuminsoniy manoda o`qitilmas edi. Aslida esa, jahon falsafasida madaniyat to`g`risidagi aloxida bir fanning vujudga kelgani madaniyatning inson va jamiyat hayotida naqadar muxim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Falsafa madaniyatdagi rang-baranglikni etirof etadi, madaniyatning universal harakterga ega bo`lgan tarixiy namunalarini bir-biridan farqlaydi.

Xulosa:Umuminsoniy qadriyatlar insonni e`zozlash, hayotni sevish, burch, sadokat, ajdodlarga hurmat, vatanparvarlik, adolat, ma`rifatparvarlik, tinchlik, totuvlik, do`stlik, hamkorlik singari fazilatlarini ifoda etadi. Tajriba shuni ko`rsatadiki, biron bir milliy madaniyatni ulug`lab, uni boshqa madaniyatdan ustun qo`yish va boshqa xalqlarga majburan targ`ib etish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ko`pmillatli mamlakatda milliy madaniyatlarni mensimaslik yoki ularni kamsitish ijtimoiy barqarorlik va milliy totuvlikka putur yetkazadi, turli ziddiyat va ixtiloflarning paydo bo`lishi uchun zamin yaratadi. Bu borada milliy G`oya va istiglol mafko`rasi asoslarini ishlab chiqishda etnik xususiyatlarni xisobga olish ularni respublika taraqqiyotining istiqbollari bilan uyg`unlashtirish imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. A.Abdug`aniyev– "Jahon madaniyati tarixi".2018-yil.120-145-betlar
- 2.Q.Q.Qosimov– "Madaniyatshunoslik" .2010-yil.85-110-betlar
- 3.H.Rahmatullayev – "Madaniyatshunoslik asoslari".2006."Turon-Iqbol"
- 4.A.Toynbi – "Tarixning idrok qilinishi".1934—1961."Oxford University Press"



- 6.Aralovna, Ochilova Guzal, et al. "Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes." Journal of Survey in Fisheries Sciences 10.1S (2023): 5000-5006.
- 7.Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.
- 8.Omonov, Bakhodir Nurillaevich, Go‘zal Aralovna Ochilova, and Sitora Ayonovna Azamova. "SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN." World of Scientific news in Science 1.3 (2023): 15-28.
- 9.Ayonovna, Azamova Sitora. "The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization." Global Scientific Review 13 (2023): 7-10.
- 10.Ayonovna, Azamova Sitora, and Pirimov Lerik Xudoyberdi o‘g‘li. "EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘." TADQIQOTLAR. UZ 40.4 (2024): 135-139..
- 11.Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35..
- 12.Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
- 13.Azamova S. EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.